

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI XAMKORLIK MEXANIZMLARI.

Otaboyeva Nargiza Nurulla qizi

*Jizzax shahar maktab va maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli*

*18-son DMTT uslubchisi*

**Annotatsiya:** *Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, shaxsiy manfaatdorlik, eski qarashlardan xalos bo'lishni, o'z faoliyatiga aks ettiruvchi munosabatning paydo bo'lishini usullarini qamrab oladi. Ushbu maqolada barkamol avlod qilib tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti xamkorlik mexanizmlarining mazmuni haqida so'z borgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim-tarbiya jarayoni, zamonaviy ta'lim dasturlari, oilaviy tarbiya, oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, oila bilan hamkorlik.*

**Аннотация:** *Рассмотрены взаимоотношения педагогов и родителей, личный интерес, пути избавления от старых взглядов, возникновение рефлексивного отношения к своему труду. В данной статье говорится о содержании механизмов сотрудничества семьи и дошкольной образовательной организации в воспитании всесторонне развитого поколения.*

**Ключевые слова:** *образовательный процесс, современные образовательные программы, семейное воспитание, семейное воспитание, социальное воспитание, сотрудничество с семьей.*

**Abstract:** *It covers the relationship between educators and parents, personal interest, ways to get rid of old views, the emergence of a reflective attitude to one's work. This article talks about the content of cooperation mechanisms between the family and the preschool education organization in raising a well-rounded generation.*

**Key words:** *educational process, modern educational programs, family education, family education, social education, cooperation with the family.*

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining xamkorligi muxim xisoblanadi[3.216].

Jamiyat hayoti, farzand tarbiyasi va yurt ravnaqi uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti nihoyatda ahamiyatli tashkilot hisoblanadi. Har bir bolaning o'z olami fe'l atvori turfa hil bo'ladi. Shunday ekan bu kichik beg'ubor olamlarini tushunib yana ma'no ma'zmun bag'ishlash, o'z "men"ini shakillantirish uchun ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik metodlarini yo'lga qo'yish ahamiyatliydir. Ahamiyatli jihati ota -onalar bilan munosabatlarga yangi yondashuvlar bilan ularning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda. Ota-onalarning bilimdagi so'rovlari va istaklarini inobatga olgan holda, bolalarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan muammolarga muloqot mazmunini yo'naltirish bugungi kunda zarurdir. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, shaxsiy manfaatdorlik, eski qarashlardan xalos

bo‘lishni, o‘z faoliyatiga aks ettiruvchi munosabatning paydo bo‘lishini usullarini qamrab oladi. Farzand ta’lim va tarbiyasi rivojlantirish tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bu hamkorlik bolalarni qiziqtirish qobiliyatini, o‘z ta’lim faoliyatini tahlil qilishni, hamda ota-ona tomonidan farzandini muntazam nazoratini nazarda tutadi. Ingliz faylasufi Frensis Bekonning fikriga ko‘ra – “Bola oilaning quvonchi, ota-onaning ko‘magi, jamiyatning hayotiy kuchidir. Bolalar tufayli hayot yanada shirin, o‘lim esa unchalik dahshatli ko‘rinmaydi” – naqadar to‘g‘ri va ayni kerakli jumlarlar desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hozirgi ijtimoiy o‘zgarishlar oilaviy tarbiya masalalariga, hamda oilalar sharoitini yaxshilash, ularni moddiy jihatdan ta‘minlashni kuchaytirishga alohida diqqat-e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashni ta‘minlashda yaslilar va bog‘chalar, maktab-internatlar va boshqa shunga o‘xshash muassasalar kengaytirish orqali oilalarga har tomonlama yordam berish ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, onalarga qulaylik tug‘dirish, ularni moddiy sharoitlarini yaxshilash, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishini ta‘minlash uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Davlatimiz oila va oilada farzand tarbiyasivazifasini yuqori baholaydi va bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli shart- sharoitlarni yaratib beradi. Ayniqsa, oilani mustahkamlash, uning sharoitlarini yaxshilash va kishilarning turmush farovonligini oshirishga hamda oila, bog‘cha, maktab. mehnat jamoalari o‘rtasidagi aloqani yaxshilash, ota-onalarning bolalar tarbiyasi uchun javobgarligini oshirish davr talabiga aylanmoqda. Ota-onalar bola tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berib o‘z bolalarini qanday insonlar bo‘lib yetishib chiqishiga va ularda qanday fazilatlar hosil qilinishini nazardan chetda qoldirmasliklari kerak. Ota-ona bolalarining tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi uchun uni yaxshi bilishi va tushunishi kerak. Buning uchun esa ota-onada pedagogik bilimlar mujassam bo‘lishi lozim. Bu bilimlar ota-onalarning bolalarni yosh va individual xususiyatlarini o‘rganishga, xulqini to‘g‘ri tahlil qilishga, uning tarbiyasi uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ish olib borish jarayonida aniq maqsad ko‘zda tutilishi muhim sanaladi. Ota-onalar bilan hamkorlik asosida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilib, ular bilan bog‘liq bo‘lgan shakl va usul asosida rejali hamda izchil ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday bolalar bog‘chasi xodimlarining ota-onalar va oilalar bilan hamkorlikdagi ishlarining keng tarqalgan shakl va usullari mavjud bo‘lib ularga:

Ota-onalar va oilalar bilan yakkama-yakka ishlash

Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar

Ko‘rsatmali ishlar

Bolaning oilasini borib ko‘rish va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Ota-onalar va oilalar bilan yakkama-yakka ishlash deganda - tarbiyachi va ota-ona o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat, do‘stlik munosabatlari o‘rnatilishi tushuniladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bu tur katta ahamiyat kasb etib, yaxshi natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy hususiyatlarini o‘rganib, tarbiyaviy jarayonda inobatga oladi. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar - ota-onalarning guruhli va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol va javob kechalari kiradi. Ko‘rsatmali ishlar - ko‘rgazmalar, fotomantajlar, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning turli muassasalari bo‘yicha materiallar solingan papka va

shu kabilarni qamrab oladi. Bundan tashqari bolaning oilasini borib ko‘rish va oila a‘zolari bilan yaqindan tanishish xamda ota-onalarga pedagogik ta‘lim berish va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllarini quyida keltiramiz:” Zero bolalarni tarbiyalash bu kelajakni tarbiya qilmoqdir”. Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro munosabatlariga yangi yondashuvlar, axborot almashinuvi va pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishdagi hamkorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim tashkiloti va oila hamkorligini yanada oshirish; ota-onalar o‘rtasida psixologik va pedagogik fanlarning eng so‘nggi yutuqlarini keng targ‘ib etish, ota-onalar va maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari bilan turli mavzularda katta-kichik noan‘anaviy yig‘ilishlar, tadbirlar mashhur har sohaning vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish, badiiy kechalar o‘tkazib turish, bolalar ko‘z o‘ngida ma‘naviy boy shaxslarni gavdalandirish, avlodlardan faxrlanish va ularga mos farzandlar bo‘lish hissini uyg‘otishi shubhasizdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. L.R.Mirjalolova. Tanlov fani moduli T.: Iste‘dod, 2018. – 223 b.R
- 2.SH.Shodmonova. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T.; 2008y, 345b.
- 3.O.A.Maxmudova va boshqalar.“Tanlov o‘quv moduli” o‘quv uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi TDPU xuzuridagi XTXQTMOXM T.2018y.51 bet.
- 4 . Kamolidinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari savollar, javoblar. T.: “Talqin” 2010y, 220 bet.
5. L.Mirjalolova va boshq. “Mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyalari” moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua. T.: 2018 y. 257 bet.
6. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova «Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari» T.; 2015 y □ 210 bet.